

Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi

// 31.01.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ma-naviyat-va-ma-rifat-kengashining-kengaytirilgan-yig-ilish>



Bugun "O'zkimyosanoat" Ajda Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Jamiyat rahbariyati va markaziy apparat xodimlari, tizim korxonalari mas'ullari ishtirok etishdi.

Yig'ilishda dastlab tarmoq korxonalarining 2023-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning "yo'l xaritasi" da belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi. 2024-yil uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.



Shuningdek, har bir korxonada kutubxonasi fondini badiiy va sohaga oid kitoblar bilan boyitish, gender tenglikni ta'minlashda olib borilayotgan ishlar to'g'risida so'z bordi. Xususan, "Eng faol innovator ayol" tanlovida korxonada xotin-qizlari ishtiroki qamrovini kengaytirish muhokama qilindi.

Shu bilan birga, ishchi xodimlar o'rtasida ichki turizmni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish va respublika bo'ylab sayohatlar tashkil etish, yosh xodimlarning g'oya va takliflarini qo'llab-quvvatlash va amalda tatbiq etish masalalari ko'tarildi.



Har bir korxonalarda yangi, zamonaviy jihozlangan, barcha qulayliklarga ega bo'lgan "Kimyo sanoati tarixi idoraviy muzey"larini tashkil qilish tartibi va talablarini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

uzkimyosanoat

uzkimyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26

**"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI**